

## DUNYOVİY BİLİMLƏR VƏ DİNİY E'TİQODLAR BİRLİĞİNİ AHAMİYATI

**Nabijonova Dilafroz Rafiqjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti*

*2-kurs talabasi*

[nabijonovadilafroz23@gmail.com](mailto:nabijonovadilafroz23@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyoviy bilimlar va diniy e'tiqod o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ularning inson kamolotidagi o'rni va jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi haqida fikr yuritiladi. Ilmiy tafakkur va ma'naviy e'tiqod uyg'unligi natijasida shakllanadigan komil shaxs modeli tahlil qilinadi. Maqola zamonaviy ta'lim, axloqiy qadriyatlar, diniy meros va ilmiy taraqqiyot omillarini bog'lab, barkamol jamiyat g'oyasini ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** Dunyoviy bilimlar, diniy e'tiqod, uyg'unlik, ma'naviyat, axloq, komil inson, ilm-fan, ta'lim, islom, taraqqiyot.

**Annotatsion:** This article discusses the interconnection between secular knowledge and religious faith, emphasizing their role in individual development and social progress. It analyzes the ideal model of a well-rounded person shaped by the harmony of scientific thinking and spiritual values. The paper highlights how modern education, ethical principles, religious heritage, and scientific progress together foster a holistic and prosperous society.

**Keywords:** Secular knowledge, religious faith, harmony, spirituality, ethics, ideal person, science, education, Islam, development.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается взаимосвязь между светскими знаниями и религиозной верой, их значение для формирования личности и развития общества. Анализируется модель гармоничной личности, сформированной на основе единства научного мышления и духовных ценностей. В статье подчёркивается важность интеграции современного образования, нравственных устоев, религиозного наследия и научного прогресса для построения полноценного общества.

**Ключевые слова:** Ветские знания, религиозная вера, гармония, духовность, нравственность, совершенная личность, наука, образование, ислам, развитие.

### Kirish:

Zamonamiz taraqqiyoti, insoniyat hayotining barcha jabhalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa, ilm-fan yutuqlari bizdan har tomonlama yetuk va komil shaxs bo'lishni talab qilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligi, odob-axloq mezonlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi maqolamda dunyoviy bilimlar bilan diniy e'tiqodning uyg'unlashuvi, ularning bir-birini to'ldirishi hamda bu uyg'unlik orqali barkamol insonni tarbiyalash borasidagi dolzARB masalalarga to'xtalmoqchiman.

Dunyoviy bilimlar deganda, tabiat, jamiyat, texnika, iqtisod, huquq va boshqa sohalarni o'rgatuvchi fanlarni tushunamiz. Ular insoniyatning moddiy-maishiy hayotini yaxshilash, yangi texnologiyalar yaratish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tibbiyotda kashfiyotlar qilish kabi muhim yo'nalishlarda xizmat qiladi. Masalan, matematika, fizika, biologiya, informatika, tibbiyot, iqtisodiyot kabi sohalar kishilik jamiyatining ravnaqi uchun beqiyos xizmat qilmoqda.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, faqatgina dunyoviy bilimlar bilan cheklanib qolgan jamiyatda insonning ma'naviy bo'shlig'i seziladi. Yuksak texnologiyalar, kuchli iqtisod, mukammal siyosiy tizimga ega jamiyatlarda ham axloqiy tanazzul, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishi kuzatilgan hollari bor.

Diniy e'tiqod esa insonning ichki dunyosini, ruhiy-ma'naviy olamini shakllantiradi. Bu – faqatgina marosim va rasm-rusumlar majmuasi emas, balki inson hayotining mohiyatini anglash, hayotdagi har bir qadamningni Allah roziligi asosida qurish, sabr, shukr, halollik, kechirimlilik, mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlarni tarbiyalaydigan yo'l.

Islom dini ilmga alohida o'rin bergan. Qur'oni Karimda: "**Biladiganlar bilan bilmaydiganlar barobar bo'lurmi?**" (Zumar surasi, 9-oyat) degan oyat, hamda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning: "**Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdur**" degan hadislari buning yaqqol dalilidir.

Shuningdek, Imom G'azzoliy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi allomalarimiz ilmi zohir (dunyoviy) va ilmi botin (ma'naviy, ruhiy)ni uyg'unlashtirib, o'z davrining yetuk mutafakkirlari sifatida tan olinganlar.

Bugungi global dunyoda ilm-fan yutuqlaridan mahrum qolish, zamонавиу texnologiyalarni o'zlashtirmaslik ortda qolish bilan barobar. Lekin, faqat ilm bilan yetakchilikka erishishning o'zi yetarli emas. Ilm va e'tiqod birga yo'l yurishi kerak.

Yuksak axloqiylik, halollik, adolat, vijdon, odamiylik – bularning barchasi diniy e'tiqod bilan bog'liq tushunchalardir.

Ilmsiz e'tiqod ko'r-ko'rona taqlidga olib keladi, e'tiqodsiz ilm esa manfaatsiz, hatto xavfli qurolga aylanishi mumkin. Masalan, zamonaviy texnologiyalar yordamida ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'lgani kabi, ularni noto'g'ri maqsadlarda ishlatish orqali insoniyat uchun xavf tug'diruvchi vositaga aylantirish ham mumkin.

Dunyoviy bilimlar bilan diniy e'tiqod uyg'unlashgan holatda esa shaxs chinakam barkamollikka, jamiyat esa sog'lom taraqqiyotga erishadi. Shu bois, maktab, oliy ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari va diniy idoralar hamkorligida ushbu ikki jihatni birlashtirgan holda tarbiya tizimi yaratish muhimdir. Asrlar davomida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va Islom dini ta'limoti bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib kelgan. Ammo o'tgan asrning 70 yili davomida xalqimiz ma'naviyatiga butunlay yot bo'lgan va umuman insoniyat ma'naviy taraqqiyotini butkul teskari izga solib yuborishga uringan dahriyona "inqilobiy" falsafa asosidagi totalitar mafkuraviy tazyiq bir necha avlod ongiga shafqatsiz qatag'onlar yo'li bilan singdirishga urindi. Bundan 33 yil oldin erishilgan siyosiy Mustaqillik millatimizga o'z asl qadriyatlarimizni erkin o'rganish va hayotga tatbiq etish imkoniyatini qaytib berdi. Endilikda bizning vazifamiz qadimiy va barqaror an'analarimizni hozirgi zamonning mutlaqo yangicha sharoitlariga mos ravishda qayta tiklab, xalqimiz tafakkur tarziga muvofiq va tushunarli shaklda yosh avlodning ma'naviy barkamol bo'lib ulg'ayishiga imkon darajasida o'z hissamizni qo'shish bo'lmog'i kerak. Mutafakkir olim Abdurauf Fitrat mas'uliyatni shaxsning "ma'naviy xatti – harakatlari majmui" sifatida talqin etadi. Darhaqiqat, inson ma'naviy mavjudot ekan, uning xatti – harakatlarida ham ma'naviylik aks etishi tabiiy holdir. Shaxs qachon o'zining harakatlari oqibatini o'ylasa va buning uchun ma'naviy javobgarligini vijdonan his etsa, ana shunda mas'uliyat haqiqiy ma'naviy xatti – harakatlar majmuasiga aylanadi. Mas'uliyatda shaxsning o'ziga xos ma'naviy jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan, iymon – e'tiqodlilik, vijdoniylik, or-nomuslilik, irodalilik, ruhan poklik, samimiylilik, g'ururlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik. Demak, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishda mas'uliyatning o'rni beqiyos.

Birinchidan, Shaxs mas'uliyatining diniy va dunyoviy talqiniga ko'ra kishi o'z-o'zini chuqur anglashiga urg'u beriladi. O'zini anglagan kishida ijtimoiy va iqtisodiy mas'uliyat hissi yuksak bo'ladi. Insonning yetuklikka erishuvi haqidagi tasavvurlar har qanday davrda ham madaniy-ma'naviy g'oyalar, konsepsiyalarning asosini tashkil etgan.

Ikkinchidan, islomiy qadriyatlarni shakllantirishdan maqsad milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, keng jamoatchilik xususan yoshlarga dunyoqarashida Islom diniga nisbatan to'g'ri yondashuvni va jamiyat uchun yuksak ma'naviyatlari kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

### **Xulosa:**

Ushbu maqolamda dunyoviy bilimlar bilan diniy e'tiqod o'rtasidagi bog'liqlik va ularning uyg'unlashuvi orqali jamiyatda komil insonni shakllantirish yo'lida qanday ijobiy natijalarga erishish mumkinligi haqida mulohaza yuritdim. Inson nafaqat ilmli, balki vijdonli, halol, rahmdil bo'lishi kerak. Ilm odamga kuch beradi, e'tiqod esa yo'l ko'rsatadi. Shunday ekan, har bir inson o'z hayotida ushbu ikki boylikni uyg'unlashtirishga intilishi lozim. Dunyoviy bilimlar insoniyat taraqqiyotini ta'minlasa, diniy e'tiqod ruhiy poklik, axloqiy yetuklikni kafolatlaydi. Ikki asosni uyg'unlashtirgan holda hayot kechirgan shaxs jamiyatga foydali, oilasiga rahmatli, o'ziga esa ma'naviy quvvatli bo'ladi. Har bir ota-onasi farzandining dunyoviy ilmlarni puxta egallashini xohlasa, uning axloqli, insofli, halol, sabrli bo'lishini ham istaydi. Demak, bu ikki tamoyil nafaqat davlat siyosatining, balki har bir oilaning, har bir yurtdoshimizning ichki ehtiyoji bo'lishi kerak. Shu boisdan, bugungi yoshlar – kelajak avlod, yurt bunyodkorlari sifatida, o'z hayotini ilm bilan yoritishi, e'tiqod bilan bezashi zarur. Faqat shunday insonlarga zamon talablariga javob bera oladigan, g'oyaviy immuniteti kuchli, ma'naviy bardam, jismonan sog'lom va ruhiy baquvvat bo'la oladi.

Ushbu maqolam orqali nafaqat o'quvchiga, balki o'zimga ham savol berdim: "Hayotimda ilm va e'tiqod qanchalik uyg'un?" Chunki har birimiz bu savolni o'zimizga qo'yib, javob topishga intilsak, jamiyatimizda faqat ilmli emas, balki odobli, axloqli, halol va adolatli insonlar ko'payadi. Shundagina biz orzu qilgan

taraqqiyot va tinchlik barqaror bo'ladi. Chunki komil jamiyat komil insonlardan boshlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qur'oni Karim. – Toshkent: Hilol Nashr, 2019.
2. Imom G'azzoliy. "Kimyo-yi saodat". – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2004.
3. Turaqulov M. "Islom va ilm-fan". – Toshkent: Sharq, 2010.
4. Shodmonov Sh. "Ma'naviyat asoslari". – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. Xudoyberganov R. "Ilm va e'tiqod uyg'unligi". – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. G'ofurov U. va boshqalar. "Falsafa". – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
8. Murodov A. "Ilm va taraqqiyot asoslari". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
9. Xoliqov M., Hojimatov A. "Zamonaviy fan va texnologiyalar asoslari". – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
10. Raxmonqulov O. "O'zbekiston ilm-fan taraqqiyoti yo'lida". – Toshkent: Akademnashr, 2018.